



**MARKAZIY OSIYO XALQLARI HAYOTIDA
ABU YUSUFNING “KITOB UL-XAROJ” ASARINING AHAMIYATI**

Abduqahhor Absattorovich Raxmonov

Direktor o‘rinbosari, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

Termiz, O‘zbekiston

Tel: +998994470703

Email: rahmonov_a.a@mail.ru

ORCID ID: 0009-0006-6265-6453

VIII asrga kelib Markaziy Osiyoni arablar istilo qildilar va ular o‘zlari bilan yangi din — Islomni olib keldilar va bosib olingan xalqlar orasida turli yo‘llar bilan bu dinni tarqata boshladilar.

Islom dini o‘rnatilgan Osiyoning juda katta hududi keyinchalik musulmon Sharqi nomini oldi. Xalifalik kuchsizlanib, faqat Yaqin Sharq doirasi bilan chegaralanib qolsada, islomning boshqa xalqlar orasida tarqalishi davom etdi¹.

Yurtimiz asrlar davomida urf-odat va an‘analarni o‘zida mujassam etgan islom dini, uning ahkamlari, shariat, fiqh kabilar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Islom olamida Abu Yusuf nomi bilan mashhur bo‘lgan Yoqub Abu Yusuf Ibn Ibrohim al-Kufiy (735-798)ning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, xalifalik soliq tizimining shakllanishi, uning yurtimiz xalqlari hayotiga ko‘rsatgan ta’siri ulkandir. Abu Yusuf tomonidan bir qancha asarlar yozib qoldirilgan. Ular ichida “Kitob al-xaroj” asari ancha mashhur bo‘lib, unda Abu Yusufning ijtimoiy-falsafiy qarashlari juda yaxshi yoritilgan. Bu asar qadimiy qo‘lyozma asar sirasiga kiradi (VIII asr)².

Abu Yusufning “Kitob al-xaroj” asarida islomdagi asosiy iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar to‘liq yoritilgan hamda arab xalifaligida soliq tizimini qay tarzda tarkib topganligini aytib o‘tish bilan bir qatorda juda qimmatli tarixiy ma’lumotlarni keltiriladi. Chunki, asarning faqatgina qadimiy qo‘lyozma ekanligi emas, balki u bizga aynan VIII–IX asrlarda xalifalikda va yurtimiz hayotida soliq tizimi qanday bo‘lganligi va keyinchalik uni tarixiy evolyusiya natijasida qay tariqa o‘zgarganligini kuzatish imkonini beradi. Abu Yusufning qarashlari, ayniqsa u tomonidan ishlab chiqilgan soliq tizimi va yerga bo‘lgan munosabat bevosita Markaziy Osiyo xalqlari hayotiga katta ta’sir o‘tkazdi.

¹ Маънавият юлдузлари. Масъул муҳаррир: М. М. Хайруллаев. -Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 1999. - б. 6.

² Абу Йусуф Йақуб б. Ибраҳим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (Мусулманское налогообложение) / Пер. с арабского и комментарии А. Э. Шмидта. Супракомментарии к переводу А. С. Боголюбова. Подготовка к изданию, вступит. статья и указатели А. А. Хисматулина. СПб., 2001.



Abu Yusuf yashagan davr islom tarixidagi eng muhim ilmiy uyg'onish bo'lgan davr hisoblanadi. Bu davrda Qur'ni Karimni tafsir qilish, fiqh, falsafa, tarjimachilik taraqqiy etgan edi.

“Kitob ul-xaroj” Abu Yusufning eng muhim asari hisoblanadi. U ushbu kitobni Xalifa Horun ar-Rashid davrida bosh qozi bo'lib ishlagan paytida yozgan. Kitobning kirish qismidan ko'rinib turibdiki, Abu Yusuf ushbu risolani xalifaning soliqqa tortish masalalari, davlat boshqaruvi, jinoyat qonunchiligi va boshqa masalalar bilan bog'liq diniy me'yorlar holati haqidagi so'rovlariga javoban yozgan. Asar xalifaga nasihat qilish bilan boshlanib, uni yuksak ma'naviyatli va odil hukmdor sifatida o'z xalqi oldidagi vazifalarni sidqidildan ado etishi lozimligini ta'kidlaydi³.

Uning qarashlaridan ma'lum bo'ladiki, u soliq boshqaruvining turli jihatlaridan yaxshi xabardor bo'lgan. Soliq masalalarini muntazam ravishda o'rganishdan oldin u "soliq to'lovchining to'lov qobiliyati", "soliq yig'uvchilarning ishonchliligi", davlat samarali va halol soliq ma'murchiligiga muhtoj ekanligini ta'kidlab o'tadi⁴. U mamlakat taraqqiy etishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi, shuningdek u ko'priklar qurish, kanallarni qazish kabi ishlarni amalga oshirishda davlat bunday xarajatlarni qanday qoplashi bo'yicha taklif beradi. Buning uchun adolatli va samarali soliq tizimini joriy etish zarurligini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, davlatning asosiy daromadi ekin yerlaridan olinadigan soliqlarga bog'liq, shunga ko'ra yangi soliq tizimi ko'proq maydonlarni ekin ekishga undaydi. U o'z xalqining ehtiyojlarini qondirish va ularning har tomonlama yaxshi yashashi bo'yicha hukmdorga bir qator takliflarni bayon qildi. Shuningdek, u soliqqa tortishda adolat va tenglik zarurligini ta'kidladi. Uning so'zlariga ko'ra, hukmdor davlat pullarini ishonchli tarzda saqlashi va uning sarflanishi uchun javobgar bo'lishi kerak. Abu Yusuf qarashlarining asosiy hissasi davlat moliya sohasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, uning kitobida bozor va narxlar to'g'risida ba'zi bir mulohazalar mavjud, masalan, narxlar qanday aniqlanadi va soliqlarning har xil turlari qanday ta'sir qiladi.

Kitobning yondashuvi pragmatik va huquqiy xususiyatga ega. Bu shunchaki islomning moliya tizimi to'g'risidagi risola emas, aksincha, bu o'sha davrda jamiyatdagi o'zgarishlar yoritilgan, islom qonunlari nuqtai nazaridan amalga oshiriladigan soliq tizimni yaratish uchun qilingan sa'y-harakatlardir. U o'zining yuqori analiz va tahlili bilan tarixiy dalillardan islom moliya tizimining moslashuvchanligi va barcha jamiyat va zamonlarga moslasha oladigan sifatga ega ekanligini isbotlashga urindi. Abu Yusuf fiqh olimi va din ulamosi bo'lgani uchun u o'zining fikrlarini Qur'oni Karim oyatlari, Payg'ambar (s.a.v) odatlari va taqvodor

³ Abu Yusuf, Kitob al-Kharaj, Beirut: Dar al -Marifah: 1979, pp.119.

⁴ Sabahiddin Azmi. Abu Yusuf's contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. India. 1995. p. 34.



xalifalarning amallari bilan isbot keltirgan. Ushbu yondashuv uning qarashlariga mustahkamlaydi.

Abu Yusufning “Kitob ul-xaroj” asarida uning nazariy umumlashmalari va ijtimoiy-siyosiy qarashlari yoritilgan. U islom davlati rahbari jamiyatni qay yo’sinda boshqarishi kerakligini aytib o’tgan. Uning asarida ifoda etilgan g’oyalarning ahamiyati shundaki, u VIII-IX asrdagi xalifalikdagi ijtimoiy siyosiy nazariyadan kelib chiqqan holda davlatni birlashtiradigan qonun va me’yorlarni ishlab chiqqan. Masalan, teng huquqlilik va adolatlilik g’oyalari o’ta muhim fikrlar edi. Chunki, Abbosiylar davlat boshqaruvi tepasiga endi kelgan bo’lib, xalqni o’zining adolatli boshqaruv konsepsiyasiga ishontirishi lozim bo’lgan. Buning uchun bir qator islohotlarni o’tkazdilar. Chunki, Ummaviylar bosib olgan o’lkalarda arablarga xo’jayinlar tarzida yashash imkonini bergan edi. Ular badavlat Yaqin Sharqning boyliklaridan juda unumli foydalandilar⁵.

Bundan tashqari, Osiyoning qadimgi yuksak madaniyatli o’lakalariga kelgan arablar, yunonlar, yahudiylar, suriyaliklar, forslar, so’g’diylarga nisbatan qoloq edilar. Ularning bu o’lkalarni bosib olishi endi shakllana boshlagan feodal jamiyatining rivojlanishiga va ozod dehqonlarning feodallar asoratga tushushiga, yer-suvga qaramligining kuchayishiga olib keldi, bu keng mehnatkash ommasining noroziligiga sabab bo’ldi. Xalifalikda mulk huquqi katta ahamiyatga ega bo’lgan. Kishining mulki unga dahlsizlik huquqini berar edi. Xalifalar bosib olingan o’lkalardagi yer-mulklarni qo’shinga bo’lib berar edi. Ammo bu qo’shinning zaiflashuviga olib keldi. Umar (r.a) bosib olingan o’lkalardagi yerlarni mahalliy aholining o’zida qoldirishga qaror qildi. U o’zlashtirilmagan, ekin ekib bo’lmaydigan yerlarni xalqqa ishlov berish va o’zlashtirish sharti bilan berdi. Bunda xalq o’zlashtirilmagan yerni o’zlashtirdi va uni o’ziga mulk qilib oldi. Lekin yer davlatga tegishli bo’lgani bois islom qonunchiligida bir qator yangi qoida va me’yorlarni ishlab chiqish zarur edi.

Xalifalikdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat xalqning iqtisodiy holatini, shuningdek madaniy hayotdagi bir qator diniy xurofiy botil e’tiqodli mazhablarning vujudga kelishi hayotiy jarayonni murakkablashtirar edi.

Abu Yusuf o’zining ijtimoiy qarashlarini mana shunday murakkab siyosiy jarayonlarni hisobga olgan holda “Kitob ul-xaroj” asarini yozdi. U doimiy ravishda Horun ar-Rashidga o’zining qarashlarini bildirib maslahat beradi. Asarda “Kimki, adolatli siyosat olib borsa, uning martabasi yuksak bo’ladi va boshqaruvda yengillik bo’ladi. Kimki, adolatsiz siyosat yurgizsa,

⁵К.Э.Босворт.Мусулмон сулолалари. Т. Фан. 2007 й.



undan xalq yuz o'giradi va boshqaruvda og'irlik sezadi"⁶, deb ta'kidlanadi. Albatta xalifa bu so'zlarni hisobga olgan bo'lishi kerak.

Abu Yusuf fath qilingan hududlarni saqlab qolish va ular bilan bog'liq muammolar hukmdorning asosiy tashvishi bo'lgan davrda yashagan. Abu Yusufning qarashlari uning o'sha paytdagi yer solig'i bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammoni aks ettiradi. Yer solig'i soliqning eng qadimgi va keng qo'llaniladigan shakli hisoblanadi. Qadimgi davr, o'rta asrlar va hozirgi davrlarda ham biz barcha jamiyatlarda daromadning asosiy manbalaridan bir sifatida yer solig'ini uchratamiz. Mutaxassislar yer "tabiiy mahsulot" ishlab chiqaradigan yagona manba ekanligi to'g'risidagi konsepsiyani ishlab chiqdilar va ularni moliyalashtirishning yagona yo'li yerga soliq solish ekanligini ta'kidlaydilar.

Rim va Sosoniylar hududlarini musulmonlar tomonidan zabt etilgan paytda yer solig'i yerga nisbatan belgilangan. Rim imperiyasida yerlar unumdorligiga qarab turli toifalarga ajratilgan⁷.

Xalifa Umar (r.a) soliq yig'ishda Sosoniylar rejimini saqlab qolishni ma'qul ko'rdi. Bu tizim misaha deb nomlangan. Abu Yusuf bu tizimni zukkolik bilan o'rganib chiqdi va uning kamchiliklarini aniqladi. Uning fikricha, bu tizim xalifa Umar (r.a) davrida o'z samarasini bergan. Biroq u soliqni adolatli yig'ishga olib kelmaydi. Aftidan, u ushbu usulni davlat xazinasiga yillik kafolatlangan daromadni ta'minlash va kam ishlab chiqarish bahonasida dehqonlar soliq to'lashdan bosh tortganligini tekshirish maqsadida qabul qilganga o'xshaydi.

Abu Yusuf "Kitob ul-xaroj" asarida xiroj solig'ining yangi usulini joriy taklif etadi. Abu Yusufgacha bo'lgan davrda bosib olingan yerlarni soliqqa tortishda Umar (r.a) joriy etgan tartib bo'yicha amalga oshirilgan bo'lsa, Abu Yusuf Umar (r.a) humidan chetga chiqib, o'z risolasida yerning hajmidan emas, balki yetishtirilgan hosilni taqsimlashga asoslanadigan soliq usulini – muqosamani taklif etdi⁸.

U soliqlarni naqd pul yoki natura shaklida yig'ish lozimligini aytib o'tdi. Shuningdek bu tizimga ko'ra narxlar o'zgarishi davlat daromadlariga zarar yetkazmasligini va dehqonlar daromadini kamaymasligini ta'kidlaydi. Chunki yangi tizimga ko'ra soliq egalik qilinadigan yerlarning umumiy maydonidan qat'i nazar, hosilning umumiy miqdoriga qarab hisoblab chiqiladi. Bu yerga yaxshi ishlay olmaydigan dehqonlar uchun yengillik bo'ldi. Bundan tashqari, u dehqonlarni o'zlashtirilmagan va qarovsiz yerlardan foydalanishga va yangi tizim asosida qo'shimcha daromad olishga ishontirdi. Abu Yusuf yangi tizim davlatning soliqdan

⁶Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (Мусульманское налогообложение) / Пер. с арабского и комментарии А. Э. Шмидта. Супракомментарии к переводу А. С. Боголюбова. Подготовка к изданию, вступит.статья и указатели А. А. Хисматулина. СПб., 2001. – с. 8

⁷ А.Исломов, Ф.Эгамов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. Т., 2003 й. - б. 18.

⁸ Sabahiddin Azmi. Abu Yusuf's contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. India. 1995. p. 132.



tushadigan daromadlari ko'payishini ta'kidladi. Shuning uchun u davlat dehqonlarga yaxshi sharoit yaratish uchun yangi kanallar qazishi, eski kanallar suv yo'llari tozalashi va zaruriy ishlarni amalga oshirishi lozimligini qat'iy tavsiya qildi⁹. Abu Yusufning bu boradagi qarashlarini mulohaza qilar ekanmiz, u soliq manbai sifatida yerni emas, balki yerdan olinadigan daromadni afzal ko'rgan. Ushbu masala iqtisodchilar o'rtasida har doim muhokamali mavzusi bo'lib kelgan. Ular qaysi biri samaraliroq mol-mulkni soliqqa tortish yoki mulkdan tushadigan daromadnimi? Abu Yusufning bu boradagi qarashlarini o'rganib shuni aytishimiz mumkinki, u soliq manbai sifatida mulkdan tushadigan daromadni tanlagan.

Abu Yusuf o'z asarida mamlakatda turli huquq va imtiyozlarga ham to'xtalgan. Masalan, ahli kitob vakillarining diniy bayramlarini o'tkazish, cherkovlar, ibodatxonalar va monastirlarni qurish, muqaddas kitoblarini o'qishiga ruxsat berish va boshqalar. Ushbu masalalarning barchasi soliqqa tortish yoki davlat moliyasi bilan bog'liq bo'lmagan bo'lsa-da, ular Abu Yusufning ta'kidlashicha, davlatning huquqiy asoslari uchun juda muhimdir. Demak, Abu Yusufning "Kitob ul-xaroj" asarida faqat "yer solig'i" bilan bog'liq masalalar emas, jamiyat hayotini tartibga soladigan boshqa masalalarga ham ahamiyat berilgan.

Abu Yusufning "Kitob ul-xaroj" asarida keltirib o'tilgan iqtisodga oid fikrlari juda katta ahamiyatga ega, chunki bu asar islom iqtisodiyoti bo'yicha yozilgan ilk asar sifatida ilk musulmon olimining tafakkuri haqida tushunchaga ega bo'lish uchun asarni batafsil ko'rib chiqish kerak edi, ayniqsa davlat moliyasi va boshqaruv tizimi bo'yicha keng qamrovli ma'lumotlarni o'zida jamlaganligi kitobning bugungi kundagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Abu Yusuf arablar va ajamlar o'rtasida ziddiyatni keltirib chiqarmaydigan g'oyalarni bayon etgan. Asardagi Najron xalqiga nisbatan olib borilgan siyosat yoki bo'lmasa zimmiylarga nisbatan bo'lgan muomila haqidagi fikrlarni bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Abu Yusuf ijtimoiy tenglik va adolatli boshqaruv tarafdori bo'lgan. Ana o'shanda mamlakat taraqqiy etajagini anglab yetgan. Abu Yusufning bu g'oyalari xalifalikda ajamlarga nisbatan odilona siyosat olib borishga sabab bo'lgan. Bu narsani boshqaruvning keyingi yillarida mahalliy hokimiyatni tub yerli aholidan chiqqan kishilarga berilganligida ko'rishimiz mumkin. Xususan, xalifa Ma'mun davrida Xuroson va Movarounnahr yerlari Tohir ibn Xusayn va Somonxudotning nabiralariga bo'lib berildi. Ular keyinchalik o'sha yerlarga hukmronlik qildilar. Aytish mumkinki ular tuzgan davlatlarning negizi islom davlati asosida edi. Davlat tuzilishining har bir bo'g'inida xalifalik boshqaruvidagi qonuniy me'yorlarni ko'rish mumkin edi.

Abu Yusufning qarashlarida islomni xaql orasida faqatgina yoyish emas, balki unga amal qilish muhimligi ham uqtiriladi. "Kitob ul-xaroj" asaridagi takliflar xalifalik aholisi kundalik

⁹ Ўша асар. – б. 133.



hayotda amal qiladigan narsalar davlat qonuni etib belgilandi. Albatta, uning bu xizmatlari jamiyatni ancha tartibga keltirishga olib kelgan.

U arab va ajam xalqlari o'rtasidagi aloqalarni yaxshilashga, tenglashtirishga intildi. U kishilar qaysi millatga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar, inson ekanligini va shunga ko'ra adolatli boshqaruvi olib borish kerakligini ta'kidladi¹⁰.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Abu Yusufning "Kitob ul-xaroj" asaridagi ijtimoiy-falsafiy g'oyalar islomiy iqtisodiy soliq tizimiga oid muhim ma'lumotlarni, VIII-IX asrlardagi xalifalikdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy holatni va uning Markaziy Osiyo xalqlari hayotida tutgan o'rnini muhim ekanligini anglatadi.

Adabiyotlar

1. Abu Yusuf Yakub b. Ibraxim al-Kufi. Kitab al-Xaradj (Musulmanskoje nalogooblojeniye) / Per. s arabskogo i kommentarii A. E. Shmidta. Suprakommentarii k perevodu A. S. Bogolyubova. Podgotovka k izdaniyu, vstupit. statya i ukazateli A. A. Xismatulina. SPb., 2001.
2. Abu Yusuf, Kitab al-Kharaj, Beirut: Dar al -Marifah: 1979.
3. Sabahiddin Azmi. Abu Yusuf's contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. India. 1995.
4. A. Islomov, F. Egamov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. T., 2003 y.
5. Bekkin R.I. Islamskaya ekonomicheskaya model i sovremennost. Moskva, 2010.
6. Ma'naviyat yulduzlari. Mas'ul muxarrir: M. M. Xayrullayev. -T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 1999. - b. 6.
7. K.E. Bosvort. Musulmon sulolalari. T. Fan. 2007 y.

¹⁰ Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (Мусульманское налогообложение) / Пер. с арабского и комментарии А. Э. Шмидта. Супракомментарии к переводу А. С. Боголюбова. Подготовка к изданию, вступит. статья и указатели А. А. Хисматулина. СПб., 2001. – с. 357.